



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 31-oktyabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2025-yil, 10-son (73).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref

10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Матякубов Шоназар Собирович. Хива хонлигидаги девонбеги лавозими ҳақида маълумотлар (Муҳаммад Мурод девонбеги мисолида).....	9
Sadullayeva Farangiz Saparovna. Folklor festivallari orqali tarixiy ongni shakllantirish: "Lazgi" va "Baxshichilik" namunasida.....	13
Shukurillayev Yunus Asrorovich. Amir Nasrulloxon harbiy nizomidagi harbiy unvon va mansablar tavsifi.....	26
Satimov Bahodir. O'zbekiston hududida bronza davri jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlar sahifasi.....	74
Turg'unov Sherzod Abdusotitovich. Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalari ishchilarining mehnat muhofazasi masalalari vaqtli matbuotda yoritilishi haqida ayrim mulohazalar.....	77
Абдуллаев Ўқтамжон Шералиевич. XX асрнинг 50-йилларида педагогика университетлари тарих кафедраларида тадқиқот ишининг ҳолати.....	94
Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich. 1970-yillarda Qoraqalpog'istonda baliqchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar.....	148
Sadaddinov Sharafaddin Xaytboy o'g'li. Quyi Amudaryo hududida temir davri haykaltaroshlik san'ati tarixi sahifasi.....	152
Ulashova Sevinch. Manbalarda Tug'luq Temur shaxsi va faoliyatining aks etishi.....	155
Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna. Buxoro biennalesi millatlararo munosabatlar faoliyatida yangi qadam.....	158
Tishabayeva Iroda Rasulovna. Maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi (1946–1949-yillar).....	161
O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li. Xiva xonligida sug'orish tizimi.....	164
Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich. Qoraqalpog'istondagi ekologik vaziyat va mo'ynoq baliq-konserva kombinatining faoliyati (1970-1980-yillarda).....	221

09.00.00 - "FALSAFA"

Гафуров Бахромджон Адхамович. Философские воззрения в научно-творческом наследии Бабур.....	29
Murotov Akmal Inoyatovich. Raqamli jamiyatda o'zbek oilaviy qadriyatlar transformatsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlar.....	33
Shonazarov Jamshid Shuxratovich. Sharq xalqlarida boshqaruv ma'naviyati axloqiy masala sifatida.....	59
Abdusalomova Maftunaxon G'ofurjon qizi. Ayollar siyosiy madaniyatini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	88
Ibrohimova Nodira Shuxratjonovna. Urushning ma'naviy va falsafiy talqini.....	109
Zakirova Nigora Xalmaxammatovna. Yoshlar milliy o'zligidan begonalashuviga qarshi "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasining o'рни.....	122
Arslonov Abdimurod. Payg'ambarlar tarixi va qissalari: vujudga kelish omillari, tadriji va tamoyillari.....	129
Kuraxmedov Azamat Erkinovich. Abdurauf Fitratning falsafiy merosidagi ma'rifatparvarlik tamoyillari.....	135
Komilov Ro'zi Rabiyeovich. Oilaviy marosimlarning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati.....	138
Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li. Jamiyat va texnik taraqqiyot muvozanatining falsafiy tahlili.....	182
Maxkamov Ulug'bek Abdugapparovich Dialog va ilmiy-ijodiy faoliyatning metodologik jihatlar.....	192
Mustafayev Jafar, Mahmudov Javohir. Tabiiy intellekt va shaxsiyat masalasi: psixofiziologik va sinergetik tahlil.....	197
Bobojonov Dilmurod Rejapboy o'g'li. Matematik tafakkur taraqqiyoti: moziy va hozirgi zamon (falsafiy tahlil).....	209
Tolibov Abdurauf. Janubiy Koreya jamiyatida an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasi kontekstida oilaviy qadriyatlar rivojlanishi.....	216
Kenjayev Burgutali Qoviljon o'g'li. Raqamli transformatsiya davrida huquqiy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	232

JAMIYAT VA TEXNIK TARAQQIYOT MUVOZANATINING FALSAFIY TAHLILI

*Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li, Namangan davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi*

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ БАЛАНСА ОБЩЕСТВА И ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА

*Алиев Назимжон Нурулладжан оглы, преподаватель
Наманганского государственного педагогического института*

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE BALANCE BETWEEN SOCIETY AND TECHNOLOGICAL PROGRESS

*Aliev Nozimjon Nurullajon ugli, Teacher at Namangan State
Pedagogical Institute*



<https://orcid.org/0009-0004-9549-6527>

e-mail:
nozimjonoff@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar falsafiy tahlil qilingan. Fan-texnika taraqqiyotining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va ma'naviy hayotiga ta'siri turli davr faylasuflarining nazariy qarashlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ilmiy-texnika taraqqiyot, dialektika, ekologik barqarorlik, postmodernizm, globallashuv, ma'naviy qadriyatlar.

Abstract: This article provides a philosophical analysis of the contradictions that arise between society and scientific-technological progress. The impact of scientific and technological advancements on the socio-economic, ecological, and spiritual life of society is examined through the lens of theoretical perspectives from philosophers of various eras.

Keywords: society, scientific and technological progress, dialectics, ecological sustainability, postmodernism, globalization, spiritual values.

Аннотация: В данной статье философски анализируются противоречия, возникающие между обществом и научно-техническим прогрессом. Влияние научно-технического прогресса на социально-экономическую, экологическую и духовную жизнь общества освещается на основе теоретических воззрений философов различных эпох.

Ключевые слова: общество, научно-технический прогресс, диалектика, экологическая устойчивость, постмодернизм, глобализация, духовные ценности.

KIRISH. Jamiyat taraqqiyoti va insoniyatning ilm-fan hamda texnika sohasidagi yutuqlari bugungi kunda kundalik hayotimizning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu masalani ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish lozim. Ayniqsa, ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy o'zgarishlarning kutilgan va kutilmagan oqibatlarini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Bunday tahlil jarayoni, avvalo, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, so'ngra ularni bartaraf

etishning g'oyaviy, mafkuraviy va amaliy yo'nalishlarini belgilash maqsadi bilan uyg'unlashadi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti yangi g'oyalar, texnologiyalar, innovatsiyalarni kashf etish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish orqali jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq shu bilan birga, ijtimoiy muhitda turli ziddiyatlar, noroziliklar, manfaatlar to'qnashuvi ham yuzaga kelishi mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODOLOGIYA.** Qadimgi davrda falsafiy

tafakkurning asosiy e'tibori tabiat va inson o'rtasidagi nisbat masalasiga qaratilgan edi. Platon inson aqli tabiatda mavjud bo'lgan ideal shakl va g'oyalarni kashf etishini ilgari surgan. Uning fikricha, biz bugun "ilmiy-texnik taraqqiyot" deb ataydigan jarayonning asosida inson ongining tabiiy qonunlarga bo'ysunmasdan ishlashi yotadi. Platon nazarida har qanday ijtimoiy faoliyat, jumladan fan va texnika bilan bog'liq ishlar ham "ideal shakl" yoki "g'oyalar"ga qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik mukammal bo'ladi[1]. Shu sababli, Platon qarashlariga ko'ra, agar fan, maqsadli faoliyat yoki ijtimoiy amaliyot koinot muvozanatini buzsa, u ideal shakldan chetga chiqadi. Aristotel esa insonning amaliy faoliyatini, shu jumladan uning texnik mahoratini "techne" tushunchasi orqali ifodalagan. U "techne"ni ma'lum maqsad yo'lida ijodkorona harakat qiluvchi shaxs sifatida ta'riflagan holda, amaliy faoliyatda doimo o'rtachalik (me'yor) tamoyiliga amal qilish zarurligini ta'kidlaydi[2]. Ya'ni, ijtimoiy-siyosiy tizimning haddan tashqari keskinlashuvi yoki biror ixtiro, texnologik kashfiyot jamiyat hayotida nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Binobarin, Aristotel yondashuvida jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lishi zamirida muvozanat tamoyilidan chekinish yotadi. Qadimgi davr faylasuflari qarashlarida tabiat - jamiyat - inson faoliyati uyg'unligi tamoyili mujassam bo'lib, bu holat keyinchalik boshqa Sharq va G'arb falsafiy oqimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asrlarda ilohiy g'oyalar ustunlik qilgan bir paytda, ko'plab olimlar ilm-fan erkinligiga to'sqinlik qilayotgan mafkuraviy cheklovlardan norozilik bildirdilar. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi Sharq mutafakkirlari ilm-fanni rivojlantirish va uni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish kerakligini ilgari surdilar. Fanni mukammallikka yetaklovchi qudratli kuch sifatida tan olib, Forobiy uni amaliy hayotda qo'llashda aql-idrokdan foydalanish, jamiyat ehtiyojlarini chuqur anglash va shu orqali ijtimoiy farovonlikni ilg'or usullar bilan ta'minlash zarurligini uqtiradi. Shu bilan birga, o'rta asrlar G'arb falsafasida diniy ta'sir kuchli bo'lgan davrlarda ixtirolar va ilmiy kashfiyotlar ba'zan xurofot sifatida qoralanib, olimlar ta'qib ostiga olingan. Biroq, bu jarayonda F.Akvinskiy yoki keyinchalik R.Bekon kabi mutafakkirlar falsafiy tafakkur va fan taraqqiyotini targ'ib qilishga harakat qildilar, shu yo'l bilan din va fan o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga intildilar. Bu holat qadimgi davrning "tabiiy qonun"ini saqlab qolish

zarurati bilan bog'liq bo'lib, muvozanatli jamiyat me'yorlari bilan kelishishni talab qiladigan oraliq yechimni topish harakati sifatida namoyon bo'ldi.

MUHOKAMA. Volter, Russo, Didro kabi ma'rifatparvar mutafakkirlar ilmiy tafakkur va oqilona fikrlash orqali jamiyatning ijtimoiy hayotini yaxshilash, insonlarni jaholatdan xalos etish mumkinligini isbotlaganlar. Xususan, Russo ta'kidlashicha, inson tabiatan erkin va teng yaratilgan bo'lsa-da, jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tufayli bu tenglik buzilishi, ba'zan esa bu buzilish taraqqiyot niqobi ostida sodir bo'lishi mumkin[3]. Shu bois, sanoat inqiloblari jarayonida jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyat negizida inson erkinligi va texnik mahsulotlarga egalik o'rtasidagi nomutanosiblik yotadi, deb taxmin qilish mumkin. Volter esa o'z satiralarida mutaassiblik va jaholatni, ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikni tanqid qilib, ayni paytda bu yutuqlardan noto'g'ri foydalanish jamiyatga zarar yetkazishi mumkinligidan ogohlantirib o'tadi. Sanoat inqiloblari jarayoni Yevropada zavodlar, mashinalar, paroxodlar, temir yo'llar kabi yangiliklar paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tubdan o'zgardi. Bir tomondan, xalq farovonligining oshishi, ish o'rinlarining yaratilishi kabi ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ikkinchi tomondan esa, mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish, tengsizlik, shahar aholisining ijtimoiy ahvoli og'irlashuvi kabi muammolar kelib chiqdi. Bu jarayon, shubhasiz, ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ham o'z aksini topdi. Shu tariqa ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan mutlaq ijobiy (optimistik) yoki mutlaq salbiy (pessimistik) qarashlar shakllana boshladi.

F.Gegel jamiyat taraqqiyotini dialektik jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, har qanday rivojlanish qarama-qarshiliklar orqali sodir bo'ladi; antiteza va sintez tamoyillari doimiy kurash jarayonida yangi xususiyatlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi[4]. Binobarin, fan o'z tabiatiga ko'ra avvalgi an'anaviy qarashlar bilan to'qnashadi, ulardan yangi nazariya, yangi texnologiya tug'iladi. Gegel jamiyatdagi ziddiyatlarni ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Demak, jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti o'rtasidagi ziddiyat ham o'z navbatida taraqqiyot kuchi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi e'tirof etiladi.

NATIJALAR. Texnologik taraqqiyot jamiyatga ulkan imkoniyatlar berishiga qaramay, har bir ixtironing jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlariga va tabiatga ta'sirini chuqur tahlil qilish, nizolarni erta

aniqlash va oldini olish zarur. Bu borada dunyo faylasuflari ilgari surgan g'oyalar – metafizik yoki dialektik, ekzistensial yoki postmodern yondashuvlar o'zaro hamkorlik qilishi, turli jihatlaridan bir-birini to'ldirishi mumkin. Masalan, Gegelning dialektik tamoyilini “har qanday global loyihaga shubha bilan qarash” postmodernistik yondashuvi bilan uyg'unlashtirish orqali biz ham taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan ziddiyatni tan olamiz, ham bu ziddiyatni sun'iy ravishda barcha muammolarning yagona yechimi deb hisoblamaymiz.

Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar taklif etadigan nizolarni hal qilish strategiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Oqilona boshqaruv: ilm-fan yutuqlarini ijtimoiy hayotga joriy etishda davlat siyosati va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqiy cheklov va me'yorlarni ishlab chiqish. Maqsad – bozor yoki shaxsiy manfaat yo'lida tabiat va ijtimoiy barqarorlikka xavf soluvchi amaliyotlardan saqlanish.

2. Tanqidiy fikrlash va demokratik muhit: ommaviy axborot vositalari, ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari o'rtasida ochiq muloqot bo'lishi zarur. Yangi texnologiya yoki kashfiyot taqdim etilganda, uning ijtimoiy va ekologik oqibatlari tanqidiy nuqtayi nazardan muhokama qilinishi lozim.

3. Ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash: insonni faqat moddiy boylikka intiluvchi mavjudot sifatida emas, balki ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida yashovchi zot sifatida tarbiyalash. Bu esa, o'z navbatida, fan-texnika taraqqiyotidan foydalanishda ham qalbdan ma'naviy vazminlik va mas'uliyatni his etishni ta'minlaydi.

4. Globallashuv sharoitida hamkorlik: texnologiya ta'siri chegaralarni tan olmaydi. Ekologik muammolar, iqtisodiy inqirozlar, kiberxavfsizlik masalalari – bularning barchasi faqat bitta davlatning muammosi emas. Shu bois xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, innovatsiyalar almashinuvini tashkil etish, qo'shma monitoring mexanizmini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat o'z tarixi davomida bir necha bor “taraqqiyot to'lqini”ga duch kelgan, bunda ba'zan inqirozlar va qiyinchiliklar ham yuzaga kelgan. Biroq aynan shu ziddiyatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va ularga yechim izlash jarayonida yangi g'oyalar, zamonaviy mafkuraviy va konseptual qarashlar paydo bo'lgan. Bularning barchasi bizga saboq beradi: faqatgina ilm-fan, madaniy-ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy uyg'unlik bilan hamohang bo'lgandagina haqiqiy taraqqiyot sari mustahkam qadam qo'yishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Платон. Государство/Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ.ст. Е.Н.Трубетской проект, 2015. – 398 с.
2. Аристотель. Политика. – М.: Издательство АТС, 2022. – 384 с.
3. Руссо Ж. Социальный договор. – М.: Издательство Наука, 2005. – С. 53.
4. Азарова Н. М. Переводы “Феноменологии духа” Гегеля и язык русских философских текстов XX века. Известия РАН, 2008. – С. 46-53.
5. Aliyev N.N. Philosophical aspects of the use of the scientific and technical potential of young people in the development of society. American journal of social sciences and humanities reaserch. Vol-4, Issue-12, 2024. – P. 282-286.
6. Aliyev N.N. Ilmiy-texnik taraqqiyot tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. - № 12. – B. 304-308.
7. Aliyev N.N. Yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Tamaddun Nuri. – Qoraqalpog'iston, 2025. – № 1. – B. 309-312.
8. Aliyev N.N. Fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'siri // O'zMU xabarлари. – Toshkent, 2025. – № 1/1. – B. 39-41.

